



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

ISLOM SHUNOSLIK SOHASIDA MUHAMMAD SAID RAMAZON BUTIYNING O'RNI VA "ROVAIUL QUR'ON" ASARIDA AMSALLAR MAVZUSI

Sodiqova Munisxon

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, magistrant

Umataleyev Sohibjon

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, katta o'qituvchi (PhD)

Annotatsiya

Bugungi globallashuv va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ta'siri ostida insonning ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlarni izchil yo'naltirish va barqarorlashtirish masalasi tobora dolzarblashib bormoqda. Axborotlashgan jamiyat sharoitida shaxs ongi va qalbi uchun turli mafkuraviy-ta'sir mexanizmlari keskinlashgan bir paytda madaniy aralashuv jarayonlarini me'yoriy asosda tartibga solish, umuminsoniy hamda ma'naviy-axloqiy g'oyalar orqali qadriyatlar ustuvorligini ta'minlash, bilim ideallari va normativ mezonlarga rioya etishda tarixiylik tamoyiliga tayanish alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ana shunday murakkab global vaziyatda Muhammad Said Ramazon Butiy zamonaviy islomshunoslik doirasida yuzaga kelayotgan muammolarga manbaviy asoslangan yondashuv bilan javob bera olgan, ijtimoiy-ma'naviy jarayonlarni tahlil qilishda muvozanatli pozitsiyani ilgari surgan yetuk olimlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Kalit so'zlar: Umuminsoniy qadriyatlar, islomshunoslik, fiqh, madrasa, jamiyat, faqih, diniy-ma'rifiy, sarf, nahv.

РОЛЬ МУХАММАД САИД РАМАДАН АЛЬ-БУТИ В ИСЛАМОВЕДЕНИИ И ТЕМА ПРИТЧ В ЕГО ПРОИЗВЕДЕНИИ «РАВАИУЛЬ КУРАН»

Содикова Мунисхон

Международная исламская академия Узбекистана, магистрант

Уматалеев Сохибжон

Международная исламская академия Узбекистана, старший преподаватель (PhD)

Аннотация

В условиях современного глобализационного и социально-политического развития всё более актуальной становится задача целенаправленного регулирования и стабилизации изменений, происходящих в системе духовно-нравственных ценностей человека. В условиях информационного общества, когда усиливаются различные механизмы идеологического воздействия на сознание и внутренний мир личности, особое научно-практическое значение приобретает необходимость нормативного регулирования процессов культурного взаимодействия, обеспечения приоритета общечеловеческих и духовно-нравственных ценностей, а также опоры на принцип историзма при соблюдении идеалов знания и нормативных критериев. В столь сложной глобальной ситуации Мухаммад Саид Рамадан аль-Бути признаётся одним из выдающихся учёных, сумевших дать научно обоснованные ответы на современные проблемы исламоведения и предложить взвешенный подход к анализу социально-духовных процессов.

Ключевые слова: общечеловеческие ценности, исламоведение, фикх, медресе, общество, факих, религиозно-просветительская деятельность, сарф, нахв.

THE ROLE OF MUHAMMAD SAID RAMADAN AL-BUTI IN ISLAMIC STUDIES AND THE THEME OF PARABLES IN HIS WORK "RAWA'I AL-QUR'AN"

Sodiqova Munisxon

International Islamic Academy of Uzbekistan, Master's student

Umataleyev Sohibjon

International Islamic Academy of Uzbekistan, Senior Lecturer (PhD)

Abstract

In the context of contemporary globalization and socio-political developments, the issue of systematically guiding and stabilizing the transformations occurring within the system of human spiritual and moral values is becoming increasingly relevant. In an information-based society, where various mechanisms of ideological influence on human consciousness and inner world are intensifying, it is of

particular scientific and practical importance to regulate processes of cultural interaction on a normative basis, ensure the priority of universal and spiritual-moral values, and rely on the principle of historicism in adhering to intellectual ideals and normative standards. In such a complex global context, Muhammad Said Ramadan al-Buti is recognized as one of the prominent scholars who provided well-founded responses to emerging issues in modern Islamic studies and advanced a balanced approach to analyzing socio-spiritual processes.

Keywords: universal values, Islamic studies, fiqh, madrasa, society, faqih, religious-educational, sarf, nahw.

Islom ilmlari tarixida o'zining chuqur ilmiy merosi, keng qamrovli qarashlari hamda jamiyat hayotiga faol ta'siri bilan ajralib turuvchi allomalar alohida o'rin egallaydi. Ana shunday zabardast ulamolardan biri — Imom Muhammad Sa'id Ramazon al-Butiy bo'lib, u zamonaviy islom tafakkurining yirik namoyandalaridan sanaladi. Uning ilmiy faoliyati Qur'on ilmlari, tafsir, fiqh, aqida va tasavvuf kabi ko'plab yo'nalishlarni qamrab olgan bo'lib, u o'z asarlari orqali an'anaviy islomiy merosni zamonaviy davr talablari bilan uyg'unlashtirishga muvaffaq bo'lgan.

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida musulmon jamiyatida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy va diniy muammolar, xususan, diniy bilimlarning noto'g'ri talqin qilinishi, ekstremistik g'oyalarning tarqalishi kabi omillar islom ilmlarini chuqur va ilmiy asosda o'rganish zaruratini yanada oshirdi. Shu nuqtai nazardan, Imom al-Butiyning ilmiy merosi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. U o'z asarlarida Qur'on va Sunnat asosida sog'lom aqida, mu'tadil fikr va ilmiy yondashuvni targ'ib qilib, islomning asl insonparvarlik mohiyatini ochib berishga intilgan. Shuningdek, Imom al-Butiy nafaqat ilmiy faoliyati, balki ta'lim-tarbiya sohasidagi xizmatlari bilan ham e'tiborga loyiqdir. U uzoq yillar davomida Damashq universitetida faoliyat yuritib, ko'plab shogirdlar yetishtirgan, masjid va ommaviy axborot vositalari orqali keng jamoatchilikka ilm ulashgan. Uning ilmiy qarashlari bugungi kunda ham musulmon olamida dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Mazkur maqolada Imom Muhammad Sa'id Ramazon al-Butiyning hayoti, ilmiy faoliyati hamda islom ilmlariga qo'shgan hissasini tahlil qilinib, uning qarashlarining zamonaviy islomshunoslikdagi o'rni yoritib beriladi.

ASOSIY QISM

Muhammad Said ibn Ramazon ibn Umar ibn Murod Butiy 1929-yilda Turkiya hududidagi Butan oroli (Jazirat Ibn Umar) deb ataluvchi mintaqaga qarashli Jilka qishlog'ida tug'ilgan [1:42]. Muhammad Said Ramazon al-Butiy oilasi bilan 1934-yilda Turkiyada yuz bergan inqilob tufayli Damashq shahriga ko'chib o'tgan [2:231].

Muhammad Said Ramazon Butiyning otasi Mulla Ramazon o'g'lining ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratgan. O'g'lini olti yoshga to'lganida Qur'on o'qishni o'rgatadigan fazilatli bir ayol huzuriga olib borgan. Muhammad Said u yerda Qur'oni karimni olti oy ichida to'liq xatm qilgan. Saruja bozori yaqinidagi Ziqoqu-l-Qarmaniy mahallasida joylashgan boshlang'ich madrasada ta'lim olgan. Bu madrasa asosan diniy ta'lim, arab tili asoslari va matematikani o'qitishga ixtisoslashgan edi.

Muhammad Saidga bevosita otasi Mulla Ramazon ta'lim bergan. U avval unga islom aqidasi asoslarini o'rgatganidan keyin Muhammad (a.s.)ning siyratidan qisqacha bayon qilgan. Undan so'ng arab tili ilmlaridan — nahv va sarf asoslarini o'rgatgan [4:356]. Uni Ibn Molikning mashhur "Alfiya" asarini yodlashga yo'naltirgan va Muhammad Said bu asarni bir yildan kamroq muddatda to'liq yodlab olgan [5:28].

Muhammad Said 18 yoshga to'lganda, otasining qat'iy talabi bilan uylangan. U ushbu nikohdan uch o'g'il va bir qiz farzand ko'rgan. Muhammad Said farzandlarining ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratgan. Barchalari oliy ta'lim muassasalarida tahsil olib, otalariga munosib farzand bo'lishgan. Ularning eng kattasi — Muhammad Tavfiq al-Butiy islomshunoslik bo'yicha doktorlik darajasiga ega bo'lgan olim bo'lib, otasining vafotidan so'ng uning ilmiy faoliyatini davom ettirgan. Keyinchalik u Shom ulamolari ittifoqi raisi etib saylangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Muhammad Said Ramazon al-Butiy siyratini o'rganadigan har bir tadqiqotchi uning shaxsiy fazilatlarini va axloqiy qiyofasini yuksak darajada ekanini e'tirof etadi.

1953-yilda Muhammad Said Ramazon al-Butiy Damashqdagi "At-tavjihu-l-islomiy" institutida shar'iy ilmlar bo'yicha o'rta ta'limni tamomladi [6:234]. So'ng Al-Azhar universitetining Shariat fakultetiga o'qishga kirgan, chunki Damashq universitetida o'sha davrda Shariat fakulteti mavjud emas

edi. U ayni shu yili majburiy harbiy xizmatga chaqirilgan bo'lsa-da, talaba bo'lganligi sababli harbiy xizmatni o'tashdan ozod etilgan.

Muhammad Said Ramazon al-Butiy 1956-yilda Al-Azhar universitetida oliy ta'limni yakunlab, "bakalavr" darajasini oldi. Shu yilning o'zida u Al-Azhar universitetining Arab tili fakultetiga ham ro'yxatdan o'tib, pedagogika yo'nalishi bo'yicha diplomga ega bo'ldi.

1957-yilda Damashq shahriga qaytib kelganidan so'ng, u o'z faoliyatini ta'lim sohasida davom ettirib, o'qituvchilar safiga qo'shildi. 1957-yilda Humus shahrida diniy madaniyat o'qituvchisi sifatida faoliyat boshladi. 1960-yilda Damashq universitetining Shariat fakultetida yordamchi lavozimiga tayinlandi.

1965-yilda Al-Azhar universitetida "Islom huquqida maslaha" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini "mumtaz" (juda a'lo) bahosi bilan himoya qildi. Shundan so'ng u Damashq universitetida professor unvoniga erishib, islom huquqi, fiqh, aqida va siyrat fanlaridan saboq bera boshladi.

1965-yilda u ilmiy safar doirasida yana Al-Azhar universitetining Shariat fakultetiga yuborildi. U yerda "Zavobitu-l-maslaha fi-sh-shari'ati-l-islomiyya" ("Islom shariatida maslahaning mezonlari") mavzusidagi ilmiy tadqiqoti asosida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Ushbu doktorlik dissertatsiyasi "oliy darajali imtiyoz" bilan baholanib, uni universitet hisobidan nashr ettirish tavsiya etildi [7:432].

Shu yili Muhammad Said Ramazon al-Butiy Damashq universitetining "Shariat" fakultetiga o'qituvchi sifatida tayinlandi. 1970-yilda dotsentlik unvoniga, 1975-yilda esa professorlik maqomiga sazovor bo'ldi. "Shariat" fakulteti dekanining o'rinbosari lavozimiga tayinlandi. 1977-yilda esa mazkur fakultet dekani etib tayinlanib, 1993-yilga qadar, ya'ni nafaqaga chiqquniga qadar ushbu lavozimda faoliyat yuritdi [8:412].

2002-yilda u Damashq universiteti bilan shartnoma asosida hamkorlik qilgan holda "Aqida va dinlar" kafedra mudiri lavozimida xizmat qildi. Muhammad Said Ramazon al-Butiyning ilmiy ixtisosligi fiqh va uning asoslari sohasiga taalluqli bo'lgan.

Alloma 2013-yil 21-mart kuni (hijriy 1434-yil, jumodul-avval oyining 9-kuni, payshanba) Damashq shahridagi "Iman" masjidida Qur'on tafsirini o'qiyotgan paytida vafot etdi.

Muhammad Said Ramazon al-Butiyning asarlari faqat diniy matnlarni sharhlash bilangina cheklanmay, balki zamonaviy jamiyatda uchraydigan ma'naviy va ijtimoiy muammolarni ham tushuntirishga xizmat qiladi. U Qur'on va Sunnatga tayangan holda aqida va fiqh masalalarini muvozanatli yoritib, diniy masalalarni tushuntirishda tarixiy tajribani hisobga olish, matn mazmunini zamon va sharoit bilan bog'lab izohlash hamda diniy hukmlar bilan real hayot o'rtasidagi munosabatni aniq ko'rsatishga intilgan.

Muhammad Said Ramazon al-Butiy zamonaviy islomshunoslikda manbaga tayanib fikr yuritadigan, ilmiy xolis va izchil olim sifatida baholanadi. Uning ilmiy merosi jamiyatda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashga, diniy bilimni to'g'ri tushunishga hamda islomshunoslikdagi ayrim murakkab masalalarga yechim topishga yordam beradi.

Kelgusida uning qarashlarini aqida, fiqh va ma'naviyat yo'nalishlari bo'yicha alohida o'rganish, boshqa olimlarning yondashuvlari bilan qiyoslash hamda uning asarlari ilmiy muhitga qay darajada ta'sir qilganini chuqurroq tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Endi esa mazkur olimning ilmiy merosida alohida o'rin tutgan "**Ravoi'ul-Qur'on**" asariga to'xtalib o'tamiz. Ushbu asarda Qur'oni karimda keltirilgan masallar chuqur tahlil qilinib, ularning ma'naviy-axloqiy mazmuni keng yoritilgan.

So'z o'rtasida masal keltirish tashbeh (o'xshatish)ning o'ziga xos turi hisoblanadi, ba'zan esa isti'ora (ko'chma ma'no)ning alohida ko'rinishi sifatida ham qaraladi. Agar o'xshatilayotgan narsa so'zda ochiq aytilgan bo'lsa, bu tashbeh (o'xshatish) bo'ladi, agar u yashirilgan (tilga olinmagan) bo'lsa, bu isti'ora (ko'chma ma'no) hisoblanadi. Keltirilgan masal bilan aytilgan voqea (qissa) o'rtasida katta farq mavjud. Biroq ularni birlashtiruvchi jihat shundaki, har ikkisi ham tafakkurni uyg'otadi, ibrat olishga va bir holatni boshqasiga qiyoslashga undaydi. Masallarda ularning tarixiy haqiqat bo'lishi shart emas, balki faqat ro'y berishi mumkin bo'lgan holat mavjudligi kifoya qiladi. Shunda tafakkur uni xuddi haqiqatda sodir bo'lgandek tasavvur qila oladi. Shu sababli masal bilan u ifodalamoqchi bo'lgan ma'no o'rtasida aloqa o'rnatiladi, chunki bu ma'no moddiy, seziladigan tus oladi — tafakkur uni tasavvur qiladi, xayol esa uni oson qabul qiladi.

Biroq masallarda ham tarixiy haqiqat bo'lmasligi mumkin, ba'zan esa masal sifatida haqiqiy voqea keltiriladi. Qur'onda bunday misollar juda ko'p. Shunday hollarda bunday qissa "masal" tarzida

keltiriladi: u haqida xabar berish uchun emas, balki ibrat va o'xshatish uchun nozil bo'lgan. Qur'on masallar uchun o'zining keng ko'lamdagi eshigini ochgan. Qur'onda kelgan masallarning deyarli barchasi unga yaqin shakldagi ma'nolarni ifodalovchi misollar bilan boyitilgan.

Biz hozir masal keltirishning balog'at (notiqlik) jihatidan tahliliga kirishmoqchi emasmiz yoki ularning nutqlarda va turli suhbatlarda qanday ishlatilishi va foydasi haqida so'z yuritmoqchi emasmiz. Balki maqsadimiz Qur'ondagi masallarda namoyon bo'ladigan eng muhim xususiyatlarni aniqlash va ularning balog'at (nutq go'zalligi) hamda e'joz (mo'jizaviy ifoda) bilan bog'liqligini ko'rsatishdir.

Bu xususiyatlarni quyidagi asosiy jihatlar orqali qisqacha bayon qilish mumkin.

Birinchi jihat. Qur'onda masallar — turli shakl va turlarda kelgan bo'lsa ham — tabiat manzaralarini ajoyib badiiy tasvirlar orqali ifodalaydi. Bu manzaralarda arablar o'z hayotlarida bilgan, tanish bo'lgan hodisalar tasvirlangan, lekin ular orasida ilgari bilmagan, eshitmagan yoki ko'rmagan narsalar ham uchrashi mumkin. Bunday narsalar boshqa xalqlarga tanish bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Demak, Qur'on masallarni keltirishda koinotdagi turli hodisa va manzaralardan foydalanadi.

Qur'onda nozil qilingan oliy maqsad — insoniyatga nazariy qadriyatlar va tamoyillarni o'rgatishdir. U ushbu qadriyatlar bilan bir qatorda inson yashaydigan tabiat manzaralari o'rtasida uyg'unlik hosil qiladi. Bu orqali Qur'on koinotdagi haqiqatlarning birligini va o'zaro bog'liqligini yoritadi. Bu masala nihoyatda keng va chuqur bo'lib, uni to'liq tushuntirish uchun batafsil izoh talab etiladi.

Ko'p hollarda Qur'on masallari tafsilotlarni keltirishda hikoya (qissa) uslubini qo'llaydi, unda voqealar batafsil tasvirlanadi. Bu esa arablar orasidagi odatiy uslubdan farq qiladi, chunki ular masallarni odatda juda ixcham va qisqa shaklda ifoda etganlar. Masalan, arablar chalg'ituvchi narsani sarobga o'xshatib masal keltirganlar, biroq bu masalni batafsil ochmaganlar. Qur'on esa ushbu masalni jonli, harakatli manzara sifatida bayon qiladi. Unda chanqagan kishi sarobni suv deb o'ylab, uning ortidan yugurib borishi, yetib borgach esa hech narsa topmasligi va hayratga tushishi tasvirlanadi. Natijada u bekor ketgan mehnat, charchoq, yo'ldan adashish va yo'ldoshlardan ajralish kabi oqibatlariga duch keladi.

Nur surasining 39-oyatida Alloh taolo shunday marhamat qiladi: "Kofirlarning amallari keng sahrodagi sarob kabi. Chanqagan kishi uni suv deb o'ylaydi, unga yetganda esa hech narsa topmaydi. Ammo u yerda Allohni topadi va U unga hisobini to'liq beradi. Alloh hisobni tez oluvchidir".

Ikkinchi jihat. Ko'p hollarda Qur'on masallari to'liq va mustaqil holda keladi. Ya'ni arab tilidagi odatga ko'ra o'xshatilayotgan narsa (asl ma'no) ochiq aytilmaydi, balki yashirin holda beriladi. Bu holatda o'xshatilgan ma'no masal ichidagi ishoralar orqali anglashiladi. Tinglovchi yoki o'quvchi umumiy ma'noni fahmlay oladi, ya'ni masal kim yoki nima uchun keltirilganini tushunadi. Bu isti'ora uslubiga o'xshaydi, ya'ni tashqi o'xshatish orqali asl maqsadga bilvosita ishora qilinadi.

Shubhasiz, ma'noni yashirin, ammo anglash mumkin bo'lgan shaklda ifodalash maqsadni yanada kuchli va chuqurroq yetkazadi, ayniqsa kontekstda uni ochiq aytishga zarurat bo'lmasa.

Masalan, Fotir surasining 12-oyatida shunday deyiladi: "Ikki dengiz barobar emas — biri shirin va yoqimli, ichish uchun laziz, ikkinchisi esa sho'r va achchiq. Bu oyatda ikki dengiz mo'min va kofir uchun keltirilgan masaldir. Bu o'xshatishning asl ma'nosi yashirin bo'lsa-da, oyat konteksti uni ochib beradi".

Shuningdek, yana bir oyatda shunday deyiladi: "Alloh bir misol keltiradi — bir odam bir-biri bilan tortishuvchi sheriklar qo'l ostida, yana bir odam esa faqat bir kishiga bo'ysunadi. Ularning misoli barobar bo'ladimi? Allohga hamd bo'lsin, yo'q, lekin ko'plari bilmaydilar".

Bu masal orqali mushrik bilan mo'min o'rtasidagi farq ko'rsatiladi. Mushrik turli "xo'jayinlar" orasida sarson bo'ladi, mo'min esa yagona Allohga sodiq bo'lib, faqat Unga ergashadi. Bu yerda asosiy ma'no yashirin tarzda masal ichida berilgan.

Shuningdek, A'rof surasining 58-oyatida shunday deyiladi: "Pok yer o'z Parvardigori izni bilan o'simliklarini chiqaradi, nopok yer esa faqat ozgina va yomon hosil beradi". Bu oyatda yer qalbga qiyos qilingan: pok yer — pok qalb, nopok yer — nopok qalbdir.

Qur'onda yana munofiqlarning holati ham masal orqali ifodalanadi (Baqara surasi, 17–20-oyatlar). Ular olov yoqqan kishiga o'xshatiladi: olov atrofini yoritgach, Alloh uning nurini olib qo'yadi va ular zulmatda qoladilar. Bu tasvir munofiqlarning dastlab iymon keltirib, keyin inkor etishlari va natijada zulmatda qolishlarini ifodalaydi [9:456].

Shu tariqa, Qur'on masallar orqali murakkab tushunchalarni soddaga va tushunarli shaklda bayon etadi. U inson tafakkurini uyg'otadi, mavhum ma'nolarni jonlantiradi hamda ogohlantirish, va'da va tahdid mazmunlarini kuchliroq yetkazadi.

Mazkur tadqiqot natijasida Qur'oni karimdagi amsollar (masallar) inson tafakkurini uyg'otish,

murakkab ma'naviy-haqiqiy tushunchalarni sodda va jonli tasvirlar orqali anglatish hamda ibrat olishga undashda muhim uslubiy vosita ekani aniqlandi. Qur'on masallari tashbeh va isti'ora uyg'unligida kelib, ko'pincha yashirin ma'nolar orqali chuqur g'oyalarni ifodalaydi. Bu esa ularning balog'at (nutq go'zalligi) va e'joz (mo'jizaviy ifoda) jihatidan yuksak darajada ekanini ko'rsatadi. Ayniqsa, Qur'ondagi masallar tabiat manzaralari, hayotiy voqealar va insoniy holatlar orqali abstrakt tushunchalarni konkretlashtirib, ularni ongga yaqinlashtiradi va qalbgga ta'sirchan tarzda yetkazadi.

Shuningdek, Qur'on masallarining muhim xususiyatlaridan biri — ularning ko'pincha mustaqil va kontekst asosida anglashiladigan shaklda kelishidir. Bunda o'xshatilayotgan ma'no ko'pincha ochiq aytilmaydi, balki ishoraviy tarzda beriladi. Bu uslub esa o'quvchi yoki tinglovchini faol tafakkur qilishga, mazmunni chuqurroq anglashga undaydi. Natijada masal nafaqat axborot beruvchi, balki tarbiyaviy va ruhiy ta'sir ko'rsatuvchi kuchli vositaga aylanadi.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida Muhammad Said Ramazon Butiyning ilmiy merosi ham alohida ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi. U o'z asarlarida Qur'on va sunnatga tayanib, diniy matnlarni zamonaviy ijtimoiy-ma'naviy jarayonlar bilan uyg'un holda tahlil qilgan. Allomaning yondashuvi — manbaviylik, muvozanat va tarixiylik tamoyillariga asoslanib, diniy tushunchalarni izohlashda chuqur ilmiy asos yaratadi. Ayniqsa, uning "Qur'ondagi amsollar"ga oid qarashlari masallarning faqat badiiy vosita emas, balki aqidaviy, tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyatga ega ekanini ochib beradi.

Globallashuv va axborotlashuv jarayonlari kuchaygan hozirgi davrda inson ongiga turli mafkuraviy ta'sirlar ortib borayotgan bir paytda Qur'on masallari va ularning ilmiy talqini muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Butiyning ilmiy yondashuvi zamonaviy islomshunoslikda muvozanatli va asosli fikr yuritish namunasini beradi. Uning merosi diniy bilimni to'g'ri anglash, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash hamda jamiyatda sog'lom tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi [10:533].

Xulosa qilib aytganda, Qur'ondagi amsollar ilohiy kalomning i'joziy jihatini namoyon etuvchi muhim unsurlardan biri bo'lib, ularni ilmiy asosda o'rganish va zamonaviy kontekstda talqin etish dolzarb ilmiy vazifalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, Muhammad Said Ramazon Butiyning qarashlari ushbu yo'nalishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi va kelgusida yanada chuqur tadqiq etilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Al-Butiy M. S. R. Min rawā'ī al-Qur'ān. – Damashq: Dār al-Fikr, 2003. – 320 b.
2. Al-Butiy M. S. R. Fiḥḥ as-sīrah an-nabawiyyah. – Damashq: Dār al-Fikr, 2005. – 412 b.
3. Az-Zarqoniy M. A. Manāhil al-irfān fī 'ulūm al-Qur'ān. – Qohira: Dār al-Fikr, 1995. – 2 jild.
4. Az-Zuhayliy V. At-tafsīr al-munīr. – Damashq: Dār al-Fikr, 2009. – 30 jild.
5. Ismoilov N. T. Qur'on ilmlari asoslari. – Toshkent: Movarounnahr, 2018. – 176 b.
6. Al-Qurtubiy A. A. Al-jāmi' li ahkām al-Qur'ān. – Bayrut: Dār al-Kutub al-Ilmiyya, 2006. – 20 jild.
7. As-Suyutiy J. Al-itqān fī 'ulūm al-Qur'ān. – Bayrut: Dār al-Fikr, 2004. – 2 jild.
8. Tohiriy A. Qur'onda masallar va ularning tarbiyaviy ahamiyati. – Toshkent: Fan, 2020. – 142 b.
9. Umarov B. Islom tafakkuri va zamonaviy talqinlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 198 b.
10. Az-Zamakhshariy M. Al-kashshof 'an haqā'iq at-tanzīl. – Bayrut: Dār al-Kutub al-Ilmiyya, 2003. – 4 jild.